

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOSHQARUV TIZIMIDAGI
O‘ZGARISHLAR VA KADRLAR MASALASI

Xudoyberdiyev Shamil Jahongirovich

Aniq va Ijtimoiy fanlar universiteti magistranti

Toshkent viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida mamlakatimizda boshqaruv tizimidagi islohotlar, kadrlar masalasi hozirgi paytdagi yangilanishlar va zamon talablaridan kelib chiqib sifat darajasida juda katta o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligi, jumladan boshqaruv tizimida, shuningdek o‘quv jarayonida ham kuzatilayotganligi, yuridik ta‘limning jamiyat uchun qanchalik dolzarbliigi masalalari yetarlicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Boshqaruv tizimi, kadrlar masalasi va kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj, yuridik sohada olib borilayotgan islohotlar, jamiyat, yuridik ta‘lim, yangi avlod o‘quv adabiyotlari.

Annotation: In this article, in the years of independence, the reforms in the management system in our country, the question of personnel, are taking place at the level of quality, based on the current updates and requirements of the time, which are observed in the management system, as well as in the educational process, how much legal education is for the society. issues of relevance are sufficiently covered.

Keywords: Management system, personnel issues and the need for personnel, reforms in the legal field, society, legal education, new generation educational literature.

Barchamizga ma‘lumki, azaldan fuqarolik jamiyatida huquq sohasini isloh qilish va sifatli yuridik xizmatni yo‘lga qo‘yish davlatning dolzarb masalalaridan biri bo‘lib kelgan. Hozirda ham huquqiy demokratik davlat qurishimiz hamda erkin fuqarolik jamiyati barpo etishimizda bevosita yuridik ta‘lim va fan asosiy mexanizmlardan biri bo‘lib qolmoqda. Yuridik ta‘lim va fan xususida so‘z yuritir ekanmiz, bu ta‘lim qamrovi faqat huquqshunoslar bilan cheklanibgina qolmasdan jamiyat barcha a‘zolariga tegishlidir.

Demokratik davlatda ijtimoiy munosabatlar aslida huquqiy mezonlar asosida shakllanib borishini nazarda tutadigan bo‘lsak, jamiyatimizda yuridik ta‘lim va fanni ahamiyati naqadar ustuvorligiga amin bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasining 1997-yilda qabul qilingan “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun va “Kadrlarni tayyorlash milliy Dasturi” tamoyillaridan kelib chiqqan holda ta‘lim sohasida tub islohotlar olib borilib, ta‘lim tizimini mazmunini tarkibiy qayta qurish va tubdan yangilash asosiy vazifa etib belgilandi. O‘tgan vaqt mobaynida o‘rta, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta‘limning yangi Davlat ta‘lim standartlari ishlab

chiqildi va tasdiqlandi. Milliy dasturni to'liq ruyobga chiqarish, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritish, tabaqalashtirilgan ta'limga o'tishni to'liq amalga oshirish, ta'lim munosabatlarni maxsus tayyorlangan malakali pedagog kadrlar bilan to'ldirishni ta'minlash, ularning faoliyatini raqobatga asoslangan muhitini vujudga keltirish belgilandi.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng mamlakatimiz konstitusiyaviy tarixida tub burilish yuz berdi. Bu davr talabidan kelib chiqqan ob'ektiv zarurat edi. Ana shu zarurat 1992-yilning oxirida voqelikka aylandi. Konstitusiyaning bosh maqsadi zaminida inson manfaatlariga xizmat qilish prinsipi yotadi. Shuning uchun ham uning «Asosiy prinsiplar»dan keyingi bo'limi bevosita inson huquq va erkinliklariga hamda burchlariga bag'ishlangan. Keyingi o'rinlarda jamiyat va shaxs hamda davlat hokimiyatining qurilish prinsiplariga alohida o'rin berilgan. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishgach, mamlakatda davlatni idora etishning zamonaviy va samarali shakli - prezidentlik tizimi qaror topa boshladi. Dunyo davlatchiligi taraqqiyotida davlat boshqaruvining asosan ikki shakli - monarxiya va respublika shakllari mavjud. Respublika, o'z navbatida, parlamentar respublika va prezidentlik respublikasi ko'rinishlariga ega. Prezidentlik respublikasi hozirgi kunda eng ko'p tarqalgan davlat boshqaruvi shaklidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotiga a'zo 192 davlatdan 142 tasida Prezident lavozimi mavjud bo'lib, ularning aksariyati prezidentlik respublikasidir. O'zbekistonda Prezident lavozimi 1990-yil 24-martda Oliy Kengashning I sessiyasida ta'sis etildi. 1991 - yil 29 - dekabrda O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risidagi masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasining referendumini, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi o'tkazildi. O'zbekistondagi prezidentlik hokimiyatini mustahkamlashda 1991-yil 18-noyabrda qabul qilingan «O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to'g'risida»gi Qonun va uning asosida o'tkazilgan umumxalq saylovi katta ahamiyat kasb etdi. Mustaqillik yillarida prezidentlik instituti to'la shakllandi. Mustaqillik yillarida mahalliy vakillik organlariga saylovlarga doir huquqiy asoslar ham takomillashdi. 1999-yil 5-dekabrda bo'lib o'tgan demokratik qadriyatlar asosidagi saylovga tayyorgarlik ko'rishga doir tashkiliy-ommaviy ishlar natijasida mamlakatda 250 ta hududiy saylov okruglari tuzildi, 7723 ta saylov uchastkasi tashkil etildi. Okrug va uchastka saylov komissiyalari tarkibida 100 mingdan ziyod mas'ul faollar faoliyat ko'rsatdilar. Saylov huquqiga ega bo'lgan 12,5 milliondan ortiq fuqarolarning ro'yxati tuzildi. Oliy Majlis deputatligiga 1200 dan ortiq nomzodlar ko'rsatilib, har bir o'rin uchun o'rtacha 5-7 tadan nomzodlar o'zaro raqobatlashdilar. Saylov kompaniyasi jarayonlarida 250 ta Oliy Majlis deputatlari saylandi. Shuningdek, 1999-yil 5-dekabrda bo'lib o'tgan xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylovlar ham demokratik tamoyillar asosida o'tkazildi. Bu

saylovlarda 5 ta siyosiy partiya, hokimiyat vakillik organlari, saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan deputatlikka nomzodlar ko'rsatishning qonuniy asoslari o'rnatilib, unda turli xil ijtimoiy qatlam va guruhlar o'z vakillarini deputat bo'lib saylanishlari uchun kurashdilar. 2000-yil 9 yanvarda va 2007-yil 23-dekabrda mamlakatimizda o'tkazilgan Prezidentlik saylovi ham demokratik tamoyillar ko'ppartiyaviylik va muqobillik asosida o'tkazildi. Nomzodlarning saylovoldi tashviqotlari oshkoralik va teng huquqlilik asosida olib borildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovining yuksak darajada o'tishi uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi. Mamlakatdagi siyosiy partiyalar va saylovchilar tashabbus guruhlari tomonidan Prezidentlikka nomzodlarning ko'rsatilishi, saylov oldi kompaniyasida nomzodlar o'rtasidagi bahs-munozaralar, saylovlarni amalga oshirish jarayonlari demokratik prinsiplar asosida ro'y berdi, bu jarayonlar xalqaro ekspertlar tomonidan e'tirof etildi.

Mamlakatimizda yosh avlod tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilishi bu sohaning naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Muhtaram yurtboshimiz rahbarligida olib borilayotgan islohotlar bularning yaqqol ifodasidir. Jamiyat taraqqiyotida, yurt, millat taqdirida o'sib kelayotgan yosh avlodning jismoniy va ma'naviy barkamolligi, intellektual salohiyati muhim o'rin tutadi. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Dunyo shiddat bilan o'zgarib, barqarorlik va xalqlarning mustaxkam rivojlanishiga raxna soladigan turli yangi tahdid va xavflar paydo bo'layotgan bugungi kunda ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishiga intilishiga e'tibor qaratish har qachongidan ham muhimdir".

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish, yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning barkamol bo'lib voyaga yetishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish borasida bir qancha muhim xujjatlar qabul qilindi, amaliy ishlar yo'lga qo'yildi, muayyan natijalarga erishildi.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar:

1. O'z.R.Konstitutsiyasi-Toshkent-2023."Adolat" milliy huquqiy axborot markazi, b-29.
2. Abdullayev R, Rajabov Q, Rahimov M. O'zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). 2 tom. -Toshkent: O'zbekiston, 2019. B-224.
3. Islomov Z. M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari. -Toshkent: O'zbekiston, 2005. B-146.
4. Sabirov A. Mustaqil O'zbekiston tarixi. -Toshkent: Akademiya, 2013. B-278.
5. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор: М. А. Рахимов. -Тошкент: Адабиёт учкунлари, 2018. B-565.

6. Ahmedov S. Mustaqillik yillarida tarixiy adolatning tiklanishi. Toshkent 2012. B 81.
7. Bo'riyev M.R. Ajdodlarimiz milliy-ma'naviy taraqqiyot va demokratik rivojlanishi haqida. Maqola. T: 2016. B 2.
8. www.ziyonet.uz
9. www.edu.uz